



KAUENDER BERDIMURATOV IJODIDA QORAQALPOQ MILLIY QADRIYATLARINING BADIY IFODASI

Uzakbaeva Aysanem,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19604191>

Annotaciya. Maqolada qoraqalpoq tasviriy san'atining yirik namoyandalaridan biri Qauender Berdimuratov ijodida milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Rassomning grafika va rangtasvir asarlari misolida xalq tarixi, epik an'analar, milliy urf-odat va marosimlarning vizual obrazga aylantirilish jarayoni o'rganiladi. "Qiz uzatish", asarlar kompozitsion yechim, kolorit, etnografik aniqlik va uslubiy xususiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Muallif ijodida milliy miniatyura an'analari va realistik maktab ta'sirining uyg'unligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qauender Berdimuratov, qoraqalpoq tasviriy san'ati, milliy qadriyat, rangtasvir, kitob grafikasi, etnografiya, portret janri, epik an'ana, kompozitsiya, kolorit.

Annotation. The article analyzes the artistic expression of national values in the work of one of the prominent representatives of Karakalpak fine art, Kauender Berdimuratov. On the example of the artist's graphic and painting works, the process of transforming the history of the people, epic traditions, national customs and rituals into a visual image is studied. "Kiz uzatish," the works are analyzed from the point of view of compositional solution, color, ethnographic accuracy, and stylistic features. In the author's work, the harmony of national miniature traditions and the influence of the realistic school is illuminated on a scientific basis.

Keywords: Kauender Berdimuratov, Karakalpak fine arts, national values, painting, book graphics, ethnography, portrait genre, epic tradition, composition, color

Qoraqalpoq tasviriy san'ati 1950-yillarning II yarimidan rivojlana boshladi. O'sha davrda birinчилardan b'olib Q.Saipov milliy professional rassom sifatida ish boshladi. Shular qatorida I.V.Savitskiyning ham o'rni muhim, u bu yerdagi barcha rassomlarni bir joyga jamlab, ko'plab ko'rgazmalarni tashkil etib qoraqalpoq tasviriy san'at maktabining asosini solishga ko'p hissa qo'shdi. Bunday ko'rgazmalarga yoshi katta rassomlardan Q.Berdimuratov, Q.Saipov, J.Quttimurodov, D.Toreniyazov va boshqa yosh rassomlardan B.Serekeev, F.Esengaliyev, J.Lepesov, U.Saparov, J.Izentaevlar ko'plab ko'rgazmalarda qatnashdi.[1, b.1].

XX asrda milliy madaniy merosni badiiy ifoda etish orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda xalq tarixi, eposi, milliy urf-odat va marosimlarini tasvirlash yetakchi mavzuga aylandi. Ana shu ijodiy muhitda shakllangan rassomlardan biri — Qauender Berdimuratov bo'lib, u qoraqalpoq milliy madaniyatini rangtasvir va kitob grafikasi orqali yuksak badiiy darajada ifoda etgan ijodkorlar sirasiga kiradi.

Qauender Berdimuratov 1926-yilda Chimboy tumanida tug'ilgan. U 1958-yilda Toshkent shahridagi P.P. Benkov nomidagi san'at bilim yurtini tamomlab, professional rassom sifatida shakllangan. Ta'lim jarayonida akademik rasm,



kompozitsiya va rangtasvir asoslarini puxta o‘zlashtirishi uning keyingi ijodida badiiy mukammallikka erishishida muhim omil bo‘lgan.

Rassom 1973-yilga qadar “Qoraqalpog‘iston” bosmaxonasida rassom bo‘lib faoliyat yuritgan. Bu davr uning ijodida alohida bosqich bo‘lib, ayniqsa kitob grafikasi sohasida katta tajriba orttirishga zamin yaratgan. Illyustratsiya janrida ishlash undan obrazni ixcham, mazmunan to‘liq va ta’sirchan ifoda etish mahoratini talab etgan. Q.Berdimuratov “Taras Orol da” (1964), “Maman biy” (1973), “Berdaq” (1974), “Alpomish” (1976) asarlari hamda qoraqalpoq folklorining 11 jildligi uchun ishlangan illyustratsiyalari orqali milliy epik an‘analarni vizual obrazga aylantirgan. Uning grafik ishlarida kompozitsiyaning aniq va muvozanatli qurilishi, chiziq plastikasining ifodaliligi xususiyatlar, qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish, milliy libos va atributlarning etnografik aniqligi xususiyatlari kuzatiladi. Rassom asarlarida chiziq imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Konturning aniqligi, shtrixlarning ritmi va soyalar orqali hajm yaratish usuli qahramonlar xarakterini chuqurlashtirgan. Ayniqsa, epik qahramonlarni tasvirlashda monumentallik va harakat dinamikasi ustuvor bo‘lgan.

Rassomning rangtasvir asarlari uning ijodida alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi kolleksiyasida “Oq bo‘z ot”, “Qiz uzatish”, “Milliy libosdagi kelinchak”, “Berdaq”, “Hurliman”, portretlari ekspozitsiyada namoyish etilgan. Undan tashqari «Bekmurat jirau», “Xamza v Karakalpakiy”, J. Seytova, Sh. Musayev- mehnat qahramoni portretlari va bir qancha grafika asarlari muzey fondida saqlanmoqda. Ushbu asarlarda qoraqalpoq xalqining, milliy marosimlari, kundalik hayoti va estetik qarashlari yorqin obrazlar orqali namoyon etilgan. Rassom realistik uslubga tayangan holda, milliy ruhni saqlab qolishga intilgan. Buning misoli sifatida Qiz uzatish kartinasini kórishimiz mumkin.

Qiz uzatish kartinasi Qoraqalpoq xalqining an‘anaviy marosimlari ichida “qiz uzatish” muhim ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan urf-odat hisoblanadi. Ushbu kartina aynan shu marosim jarayonini badiiy ifoda vositalari orqali tasvirlaydi. Asarda qoraqalpoq xalqi hayoti, milliy liboslar, jamoaviylik va marosimiy muhit uyg‘un holda namoyon etilgan.

Kompozitsiya gorizontol formatda ishlangan bo‘lib, marosim jarayoni sahnaviy tarzda ochib berilgan. Markazda yig‘ilgan jamoa, qarindosh-urug‘lar, qishloq ahli va kuzatuvchilar tasvirning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ular yarim aylana shaklida joylashgan bo‘lib, kompozitsiyaga barqarorlik va marosimiy tantanavorlik baxsh etadi.

O‘ng tomonda ot va uning yonidagi harakatdagi figura joylashtirilgan. An‘anaga ko‘ra, qiz uzatilayotganda yoki ko‘chirilayotganda ot va arava marosimning muhim elementi bo‘lgan. Shu jihatdan, ot bilan arava tasviri kompozitsiyada ramziy markaz vazifasini bajaradi. Qoraqalpoqlarda asosiy transport vazifasini ot va ot aravalar bajargan bólsa, otni bezandirishda etti sakkiz xil turdagi xunar egalarining ishlaridan foydalanilgan. Shunga kóra otning bezatilishi ham to‘y, tantana kayfiyatini



anglatuvchi omil bólib xizmat qiladi. Shuningdek ot obrazi bu yerda harakat, yangi hayotga qadam, oilaning davomiyligi ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Chap tomondagi bolalar va daraxt tasviri sahnaga hayotiylik va tabiiylik qo‘shadi. Daraxt kompozitsion “ramka” vazifasini o‘tab, sahnani tabiiy muhit bilan bog‘laydi.

Asarda ochiq havodagi marosim muhiti tasvirlangan. Orqa plandagi tasvirlangan o‘tovlar esa qoraqalpoq xalqining yarim ko‘chmanchi xalq bólganligi haqida ishora qiladi. Shuningdek qoraqalpoqlar badiiy hunarmandchiligi ananviy ótov tevaragida shakllangan, u dehqonchilikni órganib, ótroq turmush kechira boshlagan, gishtin uylar qurishga ótgandan keyin ham davom etgan. Bu elementlar tarixiy-etnografik haqqoniylikni ta‘minlaydi.

Perspektiva shartli, ammo fazoviy chuqurlik orqa planning yumshoq ranglarda ishlanishi orqali berilgan. Bu milliy miniatyura uslubiga xos yechim bilan realistlik tasviriy yondashuv uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Asarda milliy liboslar alohida ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq ayol-qizlarining kiyimi, erkaklarnikiga nisbatan, rang-barangligi, naqsh-bezaklarning ko‘pligi, qulayligi va ko‘zni tortar go‘zalligi bilan keskin ajralib turgan. Ayol-qizlarning an‘anaviy kiyim-kechagi inson bilan uyg‘unlashib, uning ichki dunyosiga, xarakteriga, turmush tarziga, kasbiga, fikr-o‘yiga mos bo‘lgan. An‘anaviy kiyim-kechaklarning murakkab majmuasi nafosat, go‘zallik va ma‘naviy asoslarni o‘zida mujassam etgan.[2,B.10] Qoraqalpoq erkaklari kiyim-kechaklarining qo‘shni turkman va xorazmlik o‘zbeklar kiyimlaridan farqi kam bo‘lgan. Biroq, kiyimning rangida, kiyinish madaniyatida bir qancha o‘ziga xosliklar bo‘lgan. Erkak kishilarning kiyimi bezaksiz, yaltiroqsiz, bir tekis rangda bo‘lganligi bilan ajralib turadi. [3, B.26]

Qiz uzatish marosimiga xos ravishda ayollar libosida qizil, ko‘k va jigarrang tuslar ustuvor. Bu ranglar quvonch, farovonlik va yangi hayot ramzi sifatida talqin qilinadi. Koloritda iliq ranglar ustuvor bo‘lib, marosimning quvonchli va tantanaviy kayfiyatini kuchaytiradi. Lokal (sof) ranglar qo‘llanilishi milliy tasviriy an‘analar ta‘sirini ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq milliy urf-odatlaridan biri bólgan qiz uzatish kartinasi muzeyga tashrif buyurgan har bir tomoshabinni, qolaversa chet elli mehmonlarda juda katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy hol albatta. Sababi ushbu kartina orqali faqatgina oilaviy marosim emas, balki ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi urf-odat, jamoaviylik, barchaning bir nuqtaga qaragan holda jamlangani xalq birdamligi va an‘analarga hurmat ifodasini kórish mumkin. Shuningdek mazkur kartina qoraqalpoq xalqining “qiz uzatish” marosimini nafaqat voqelik sifatida, balki milliy qadriyat va ma‘naviy meros sifatida talqin etadi. Kompozitsion muvozanat, rang uyg‘unligi va jamoaviy obrazlar orqali asarda an‘ana, davomiylilik va ijtimoiy birlik g‘oyasi badiiy ifoda topgan.

Rassom mazkur kartinani yaratishda asardagi har bir obraz, obekt va detallarning joylashuvi, ranglarning bir-biriga uyg‘unligi, qolaversa qoraqalpoq



millatiga oid erkaklar, ayollar va yosh bolalarning kiyinish madaniyatini yorqin ranglar orqali tóliq ochib bera olgan. Ushbu kartina nafaqat qoraqalpoq tasviriy sanati namunasi, muzey eksponati balki muzeyda olib boriladigan ekskursiya davomida berib boriladigan malumotlarning yaqqol misoli sifatida xizmat qiladi.

Qiz obrazi (garchi aniq markazlashmagan bo'lsa-da) marosimning mazmuniy markazi sifatida his etiladi. Bu yechim san'atkorning individual emas, balki jamoaviy qadriyatlarni ustuvor qo'rganini anglatadi.

Asarda realistik maktab ta'siri, figuralar proporsiyasi va harakat dinamikasi, etnografik aniqlik libos va marosim detallari kabi jihatlar kuzatiladi. Bu jihatlar asarni etnografik-badiiy hujjat sifatida ham baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda Qoraqalpoq xalq rassomi Kauender Berdimuratov yaratgan “Qiz uzatish marosimi” kartinasi muzeyda saqlanishi va namoyish etilishi yoshlar tarbiyasida katta ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu asar Qiz uzatish marosimi kabi milliy urf-odatlarining mazmunini va xalq hayotidagi o'rnini yorqin tasvirlaydi, milliy qadriyatlarni saqlash, yoshlarda milliy g'urur va hurmatni shakllantirish, tarixiy va madaniy bilim berishda xizmat qiladi. Kartina qoraqalpoq xalqining an'analari, oilaviy munosabatlari va urf-odatlari aks etgan. Yoshlar bu asarni ko'rib, o'z xalqining madaniyati va tarixiga nisbatan hurmat va faxr tuyg'usini his qiladi. Bu ularda milliy o'zlikni anglashni kuchaytiradi. Kartina orqali yoshlar qoraqalpoq xalqining oilaviy marosimlari, ota-onaga hurmat, oila muqaddasligi kabi g'oyalar yoshlarga ma'naviy saboq beradi. Estetik tarbiya jihatdan san'at asarini tomosha qilish yoshlarda go'zallikni anglash, san'atni qadrlash va ijodkorlikka qiziqishni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Serekeeva. «Óz obrazlarında jasawshı xudojnik» Nókis-2017
2. Qarlıbaev M.A., Qurbanova Z.I. «Qaraqalpaq kiyimi» Nókis-2014
3. Qarlıbaev M.A., Qurbanova Z.I. «Qaraqalpaq kiyimi» Nókis-2014
4. Ayımbetov Q. «Xalıq danalıǵı» Nókis-1988
5. Ótegenova U. «Milliylıkti sáwlelendirgen xudojnik » Ámiwdaryá -1 Nókis- 2017